

PEDAGOGIK MAHORAT

5
2023



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2023-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2023, № 5

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumaev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 5, 2023

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), доцент

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Нематовна, доктор педагогических наук (DSc)

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук, доцент

Назаров Акмал Мардонович, доктор философии психологических наук (PhD), доцент

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Зарипов Гулмурот Тохирович, кандидат технических наук, доцент

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD)

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 5, 2023

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Doc. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Doc. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Doc. Akmal M. Nazarov

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

Candidate of technical sciences, Doc. Gulmurot T. Zaripov

PhD in Economics Sciences, Layli B. Navruz-zade

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>ELOV Ziyodullo Sattorovich</i>	O‘z joniga qasd qilish deviant xulq-atvorli o‘smirlarda psixologik muammo sifatida	8
2.	<i>АХМАДОВ Назиржон Рахматович</i>	Психологические механизмы формирования адаптационного процесса у дезадаптированных подростков	13
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	<i>XASANOVA Surayo Shonazarovna</i>	Ixtisoslashgan maktablarda ta’lim jarayonini psixodiagnostik metodlar yordamida tadqiq etish	18
4.	<i>XOLTURAYEV Asqarjon Panjiyevich</i>	O‘quv faoliyatida natijaga erishish shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar	22
5.	<i>ABDIEVA Gulara Babaniyazovna</i>	Finlandiya ta’limiy yondashuvi asosida QR-kodlar yaratish metodlari va ulardan foydalanish usullari	26
6.	<i>FAYZULLAYEVA Gulchexra Sharipboyevna</i>	Ta’lim sohasida kasb standartini joriy qilishning konseptual asoslari	30
7.	<i>JABBOROVA Dilafruz Furqatovna</i>	Pedagogik riskologiya va uning ilmiy-nazariy asoslari	35
8.	<i>MAXMUDOVA Zulfiya Mexmonovna</i>	Qo‘riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi	40
9.	<i>MO‘MINOVA Dilrabo Murodillayevna</i>	O‘smir qizlarda “xarakter aksentuatsiyasi” ning xususiyatlari	45
10.	<i>NAZAROV Tahir Toshpo‘latovich</i>	Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi sub’ektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini loyihalashning pedagogik shart-sharoitlari	49
11.	<i>OCHILOVA Manzura Orziqulovna</i>	Ko‘zi ojiz bolalarga ta’lim-tarbiya berishning pedagogik asoslari	54
12.	<i>OLIMOV Laziz Yarashovich</i>	Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti korrelyatsiyasi	58
13.	<i>RAXIMOVA Nilufar Atamurotovna</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilarda qadryatli yondashuv asosida pedagogik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik zaruriyati	65
14.	<i>SADIKOVA Firuza Safarovna</i>	Interaktiv ta’lim platformalar vositasida talabalarning umumiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish usullari	69
15.	<i>TURDIEVA Gavhar Saidovna</i>	Raqamli ta’lim platformalari talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida	75
16.	<i>USMONALIYEV Ikromjon Murodjon o‘gli</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish mazmuni va ustuvor tamoyillari	81
17.	<i>XUJAKULOV Sherzod Amankulovich</i>	Axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash: tushuncha, mazmun, mohiyat	86
18.	<i>ZOKIROVA Dilnoza Nematillaevna, OTAMIRZAEV Olimjon Usubovich</i>	Bo‘lajak muhandis-energetiklarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish	91
19.	<i>ИСМАТОВА Дилафруз Туймуратовна</i>	Оилавий муносабатларда эмоционал зўриқишларни коррекциялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	96
20.	<i>ФАЙЗИЕВ Зоҳиддин Ҳасанбоевич</i>	Педагог шахсининг стрессга нисбатан бардошлилик даражасини эмпирик тадқиқ этилиши	101
21.	<i>RAXIMOV Farrux Boltayevich</i>	Virtual ta’lim muhitida o‘qitish texnologiyasi	106
22.	<i>КУРБАНОВА Гульноз Негматовна</i>	Профессиональное мышление в системе высшего медицинского образования и аспекты его развития посредством педагогического общения	111
23.	<i>GADAYMURATOV Shuhrat</i>	Texnologik jarayonlar asosida bo‘lajak texnologik ta’lim	



SUD PSIXOLOG EKSPERTI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGI VA EMOTSIONAL INTELLEKTI KORRELYATSIYASI

*Olimov Laziz Yarashovich,
Buxoro davlat universiteti,
Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti*

Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellektini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.*

КОРРЕЛЯЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА

В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование её конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: *судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.*

CORRELATION OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE AND EMOTIONAL INTELLIGENCE OF FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT

This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.

Key words: *forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.*

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

“Sud ekspertizasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko'rsatib o'tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo'gan xususiyatlarni ro'yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-

son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 5-iyuldagi PF-6256-son “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 17-martdagi gi PF-89-son “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 13-dekabrda 705-son “Sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-fevraldagi 73-son “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda psixologlar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sotsial-psixologik kompetentlik bilan bog‘liq manbalarni tadqiq qilganimizda unga aloqador bo‘lgan Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishi muammosini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo‘lgan ko‘plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e‘tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo‘lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘ishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko‘pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo‘llanilishida ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo‘lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug‘ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatleri mutanosibli bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste‘dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda “qobiliyat” tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to‘laroq anglash va amaliyotga keng doirada tadqiq etish uchun esa uning shakllanish yo‘lini, tarixiy rivojlanishini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi, xolis) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o‘rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o‘rnini bo‘shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat taraqqiyoti barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik tajribalarning ahamiyati yanada ortib, uni o‘tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o‘z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta’minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko‘p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog‘liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur va idrok qilish va xayol jarayonlarini tadqiq qilishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, birinchi bo'lib 1810 yilda Napoleon “Jinoyat kodeksi”ga o'z hatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik layoqatini aniqlash tushunchasini kiritadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchi (gumonlanuvchi shaxsi)ning o'z hatti-harakati yoki qilmishlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864 yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertizasini o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilib, ushbu psixiatrik ekspertisasi tarkibiga psixologik ekspertizasini o'tkazish ham nazarda tutilgan edi. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlanadi.

XX asrning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya va psixodiagnostika sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulq-atvoridagi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.

1922-yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. XX asrning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sudga oid psixologik ishlar olib borila boshlandi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida sud psixologik ekspertizaning xulosalari isbot-dalillarning mustaqil manbai sifatida qo'llaniladi. Uning nazariy asoslari yirik olimlar tomonidan, xususan, Germaniyada - V.Shtern, G.Gross, Italiyada – E.Ferri va R.Garrofalo, Rossiyada – L.Vladimirov, A.Freze, V.Bexterev va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Sudga oid psixologik ekspertizasiga doir tadqiqotlarda sud psixolog eksperti faoliyatiga aloqador turli jihatlarini, xususan: K.Marbe psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatidagi ishtiroki, V.Shtern sud psixolog ekspertining jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko'rsatmalarini baholash va ekspertiza qilayotganlarning aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullarini, G.Gross esa kriminal psixologiya sohasiga doir ekspertiza o'tkazish mexanizmlarini ochib bergan.

M. Grodzinskiy “Guvohlar ko'rsatmalaridagi bir xil xatolar”, Ya.Kantarovich “Guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi”, A.Luriya “Jinoyat izlarini aniqlashda psixologiya”, G.Volkova “Jinoiy huquq va refleksologiya”, V.Vnukova va A.Brusilovskiy “Voyaga yetmagan va yoshi kichik guvohlik ko'rsatmalarining psixologiyasi va psixopatologiyasi” asarlarda shaxs va ayblanuvchi psixologiyasi, guvohlik ko'rsatmalari bo'yicha sud psixologik ekspertizani o'tkazish texnikasi va uslubini asoslab berilgan.

Guvohlik ko'rsatmalarini tadqiq etish sohasida psixologik ekspertiza o'tkazish va boshqa muammolar bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilib, psixolog A.Luriya tomonidan 1927 yilda Moskva guberniya prokuraturasi qoshida tashkil qilingan amaliy psixologiya laboratoriyasida jadal tadqiqot ishlari olib borilgan. U yerda psixologik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jinoyatlarni ochish uchun amaliy psixologiya usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganib chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo'llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko'rsatmalarining haqiqiylikini aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo'llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan qonunbuzar shaxsini o'rganib chiqishga e'tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o'zini o'rganilishida to'xtalgan), bu esa o'z navbatida, ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni inobatga olgan holda sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to'g'ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan esa, jarayon (sodir etilgan holat) ishtirokchilarining ko'rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, ekspert sud yoki tergov jarayonida berilgan ma'lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo'yicha vazifani o'z zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnovaning fikricha, ekspertiza doirasida shaxsga tashxis qo'yish orqali haqiqatni aniqlash uchun qo'llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o'zi bilan sodir bo'lgan holat yoki hodisa to'g'risida bildirgan fikrlari, yoki ko'rsatuvlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob'ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg'on belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo'mraygan va yopiq odamlar oldindan uylab qo'yg'an yolg'onni aytishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun u bergan ko'rsatmalar ahamiyatli emas, deb baholash mumkin. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: sub'ekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, istaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga yetmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob'ektiv tarzda hal etish imkoni bo'lmagan.

O‘rganish jarayonida keltirilgan vajlarning haqiqiylikni aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi sifatida bundan iborat bo‘lmagan. Ko‘rsatmalarning haqiqiylik haqida savolga javob berayotganda, ekspert-psixolog o‘zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o‘z vakolati doirasidan chiqib ketgan va sud vakolati chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud ekspertizasi imkoniyatlariga vakolatidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlaridan ancha orqada qolgan edi. Bu esa o‘z navbatida vazifalarni noto‘g‘ri, xato belgilashga va ularni yechish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko‘rsatmalar haqiqiylikning tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo‘lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o‘ziga borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o‘rinlidir.

Olimlarning jiddiy tadqiqot ishlari (xususan, A.R.Luriya, M.M.Kochenov, A.R.Ratinov, V.L.Vasilev, V.F.Pirojkov, A.V.Dulov, V.F.Yengalichev, S.S.Shipshin va boshqalarning) jinoiy va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud jarayonlarining maqsadlariga nisbatan sifatli darajada psixologik vazifalarni qo‘yish va hal etish imkonini beradi.

Natijalar.

Sud psixolog ekspertlarining emotsional intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo‘lgan alomatlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikda o‘z aksini topgan. Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Ular ekspertiza qilayotganlarning ishga oid ko‘rsatuvlarini (xususan, berayotgan ko‘rsatmalari rostmi, yoki yolg‘onligi, ularning fantaziyaga berilayotganligi yoki yo‘qligi) tinglash va tushunish uchun ortiqcha emotsional kechinmalarga berilish kerak emas, degan xulosaga kelganliklarini anglatadi. Natijada, sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli nizoli holatlar va o‘zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo‘lishni biladilar.

Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellektini o‘zaro bog‘lovchi jihatlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,503$, $p\leq 0,05$), axloqiy ustanovkalar bilan o‘z emotsiyasini boshqarish ($r=0, 0,562$, $p\leq 0,05$), emotsional barqarorlik bilan empatiya ($r=0,526$, $p\leq 0,05$), ego kompetentlik bilan o‘z-o‘zini rag‘batlantirish ($r=0,512$, $p\leq 0,05$), barqaror insoniy munosabatlar bilan va emotsional barqarorlik bilan emotsional bilimdonlik ($r=0,573$, $p\leq 0,05$) o‘rtasida kuzatildi ($r=0,457$, $p\leq 0,05$). Qolgan ko‘rsatkichlar o‘rtasida korrelyatsion ko‘rsatkichlar biroz past bo‘lganligi esa sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyati davomida o‘z hatti-harakatlarini nazorat qilish, ish faoliyatini tartibga solish va uni ro‘yobga chiqarish ustida jiddiy ishlashlari amalga oshirish zarurati borligidan dalolat beradi.

Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlari faoliyat jarayonida boshqa shkalalar bo‘yicha ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish orqali ekspertiza o‘tkazilayotganlarning ichki kechinmalari, ularning his-tuyg‘ulari, bergan ko‘rsatuvlarini, shuningdek, o‘zi bilan sodir bo‘lgan hodisa yoki holat ularning keyingi ruhiy holatidagi ta’siri (iz, asorat)ni adekvat baholashga va sud psixologik ekspertizasi xulosasini tegishli tartibda rasmiylashtirishda samaradorlikka erishish mumkinligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=41)

	Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo‘yicha)				
		Emotsional bilimdonlik	O‘z emotsiyasini boshqarish	O‘zini-o‘zi rag‘batlantirish	Empatiya	O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish
kompetentlik (Kumitsina)	Insonlarni tushunish	0,319	0,106	0,281	0,262	0,503*
	Vaziyatlarni tushunish	-0,039	0,416	0,143	0,331	0,431
	Uddaburonlik	0,090	-0,037	0,236	0,259	0,407

Axloqiy ustanovkalar	0,087	0,562*	0,318	0,371	0,320
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,291	-0,013	0,290	0,400	0,239
Emotsional barqarorlik	0,207	-0,033	0,303	0,526*	0,269
Imidj	0,368	0,430	0,104	0,266	0,482
Sotsial psixologik kompetentlik	-0,011	0,244	0,455	0,234	0,466
Verbal kompetentlik	0,101	0,125	0,454	0,198	0,487
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,561*	0,131	0,060	0,160	0,497
Ego kompetentlik	0,273	0,249	0,512*	0,235	0,228
Kommunikativ kompetentlik	-0,030	0,452	0,249	0,447	0,395
Ishonchlilik	0,068	0,216	0,459	0,446	0,512*
Barqaror insoniy munosabatlar	0,573*	0,291	0,499	0,485	0,432
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,078	0,436	0,382	0,141	0,208

Izoh: * $p \leq 0,05$,

** $p \leq 0,01$

2-jadval

Besh yildan ortiq ish tajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=61)

	Shklalar	Emotsionla intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
		Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zini rag'batlantirish	Empatiya	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik (Kunitsina metodikasi bo'yicha)	Insonlarni tushunish	0,331	0,304	0,486	0,267	0,701**
	Vaziyatlarni tushunish	-0,033	0,659**	0,123	0,329	0,421
	Uddaburonlik	0,087	0,141	0,226	0,241	0,478
	Axloqiy ustanovkalar	0,741**	0,276	0,083	0,236	0,195
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,312	-0,019	0,498	0,398	0,239
	Emotsional barqarorlik	0,196	-0,031	0,308	0,454	0,351
	Imidj	0,313	0,353	0,109	0,452	0,398
	Sotsial psixologik kompetentlik	0,017	0,446	0,236	0,713**	0,219
	Verbal kompetentlik	0,122	0,482	0,431	0,227	0,193
	Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,741**	0,103	0,060	0,149	0,491

Ego kompetentlik	0,313	0,321	0,314	0,228	0,223
Kommunikativ kompetentlik	-0,029	0,232	0,738*	0,405	0,389
Ishonchlilik	0,062	0,435	0,423	0,412	0,278
Barqaror insoniy munosabatlar	0,241	0,776**	0,453	0,474	0,687*
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,063	0,485	0,763**	0,193	0,309

* $p \leq 0,05$, ** $p \leq 0,01$

Navbatdagi tahlil esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti o'rtasidagi bog'liqliklarga qaratilgan.

Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ko'rsatkichlarida ham emotsional intellekt bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik o'rtasida yuqori korrelyatsion bog'liqlikni ifodalovchi koeffitsientlar kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog kasbiy faoliyatini tashkil etishda shaxsiy tajriba va tasavvurlariga yaqqol tayanishlarini ko'rsatmoqda.

Tajriba-sinov natijalarida kuzatilishicha, besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari emotsional intellekti ijtimoiy-psixologik kompetentlikning insonlarni tushunish o'zga insonlarning kechinmalarini sezish bilan ($r=0,701$, $p \leq 0,05$), vaziyatlarni tushunish o'z emotsiyasini boshqarish bilan ($r=0,659$, $p \leq 0,05$); axloqiy ustanovkalar emotsional bilimdonlik bilan ($r=0,741$, $p \leq 0,05$), sotsial psixologik kompetentlik empatiya bilan ($r=0,713$, $p \leq 0,05$), barqaror insoniy munosabatlar o'z emotsiyasini boshqarish bilan ($r=0,776$, $p \leq 0,05$) va shaxslilik kommunikativ imkoniyati o'z-o'zini rag'batlantirish bilan muvofiqlikda ($r=0,763$, $p \leq 0,05$) rivojlanishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Korrelyatsion munosabatlardan, besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni oqilona baholash, sud psixolog ekspertining o'zining statusiga ega bo'lishi muhim ekanligini anglaganliklarini ifodalamoqda, deyish mumkin (2-jadval).

Xulosa.

Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini tadqiq etishda ularning emotsional intellektiga murojaat qilish juda ham zarur. Aytish mumkinki, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o'rtasida ijobiy bog'lanishlar faoliyat jarayonida muhim hisoblanib, barcha mezon bo'yicha ijtimoiy-psixologik kompetentlik sifatleri bilan emotsional intellekt o'rtasidagi to'g'ri ichki munosabat shakllangan. Bu esa sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligining kasbiy kamolotdagi holatini yanada chuqurroq tushunish imkonini berdi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligiga tayanch kompetensiyalarini faoliyat jarayonida shakllantirilishi kognitiv, emotsional, xulqiy omillarni o'zaro mutanosib ravishda rivojlanishi faoliyat samadorligini ta'minlashda individual va differensial farqlarga bog'liqligi haqidagi g'oyalarimiz o'z tasdig'ini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik, eng avvalo, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qilishi aniq.

Adabiyotlar:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O'quv qo'llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik

xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

8. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

9. Olimov L.Ya. Sotsialno-psixologicheskiy podxod k issledovaniyu konfliktov. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2019 god, Vipusk 19. 379-381 st.

10. Olimov L.Ya. Teoreticheskie osnovi pedagogicheskoy texnologii. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2018 god, Vipusk 18. 163-165 st.

11. Olimov L.Ya. Teoreticheskiy analiz problemi kreativnosti v psixologii. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 23, 2021 g. S 237-241.

12. Olimov L.Ya., Jumaev N.Z. Pedagogicheskoe obuchenie pedagoga so studentami. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2017 god, Vipusk 15. 198-203 st.

13. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Diagnostika Upravlencheskix Sposobnostey. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 2, 2020 g. S 204-209.

14. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.

15. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.

16. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

17. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O‘smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

18. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.